

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ARTIKOVA ZIYODA ZAYNITDINOVNA

**XITOIY TILI 把 “BA” IYEROGHLIFINING POLIFUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 811.581:81’36’37
KBK: 81.2-2/3 (Xit)
A-81

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna

Xitoy tili 把 “ba” iyeroglifining polifunksional xususiyatlari5

Артикова Зиёда Зайнитдиновна

Полифункциональность иероглифа 把 “ba” китайского языка27

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna

Polyfunctional features of the Chinese character 把 “ba”55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ARTIKOVA ZIYODA ZAYNITDINOVNA

**XITOIY TILI 把 “BA” IYEROGHLIFINING POLIFUNKSIONAL
XUSUSIYATLARI**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil.2907 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuos.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Akramdjan Abilevich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirova Saodat Abdullayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Siddiqova Iroda Abduzuhurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" may soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (85 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil "24" aprel dagi 85 raqamli reestr bayonnomasi).



A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.R.Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

X.Z.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

Handwritten signature in blue ink.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida xitoy tili iyerogliflarining fonetik, leksik, semantik, morfologik, sintaktik jihatlarini o'rganish kabi masalalar yuzasidan izchil izlanishlar olib borilmoqda. Iyeroglif xitoy tilida shunchaki grafik belgi bo'lmay, o'ziga xos semantik, falsafiy va madaniy kodlarning tashuvchisi hamdir. An'anaviy xitoy tilshunosligi asosi ham aynan yozuv, aniqrog'i iyerogliflar tadqiqidan boshlangani xitoy tilining nazariy o'rganilishida iyerogliflar masalasi fundamental ahamiyat kasb etishi dalillaydi. Shu bois xitoy tili 把 “ba” iyeroglifining qator vazifalari tadqiqiga bag'ishlangan mazkur ish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega deyish mumkin. Ularning tuzilishi, tarixiy, ilmiy-nazariy xususiyatlari doimiy ravishda ilm ahlini qiziqtirib, tilni sinxron va diaxron prinsiplar asosida tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida xitoycha iyerogliflarning lingvistik xususiyatlari tilshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Fonetik, morfologik, leksik va albatta, grafik jihatdan o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lgan xitoy tilida lisoniy birliklar tadqiqida iyerogliflarning alohida ahamiyati bor. Xitoy iyerogliflarining o'ziga xos xususiyatlari borasidagi qarashlarni umumlashtirish, tizimga solish hamda mutaxassislar e'tiboriga havola etish sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar katta ilmiy-nazariy ahamiyatga molik.

Respublikamizda keyingi yillarda o'zbek xitoyshunos olimlari tomonidan xitoy tilining o'ziga xos tizimli tuzilishga ega ekanligi teran ilmiy izlanishlar orqali tobora aniqroq yoritilmoqda. Xitoy iyerogliflarining nutqda qo'llanish imkoniyatlarini to'la ochib berish, ularning xususiyatlarini o'rganish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xitoy iyerogliflarining polifunksionalligi, ularning nutq jarayonidagi vazifalarini aniqlash shunday muhim masalalardan biri sanaladi. XXR va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hamda ilmiy aloqalarni rivojlanib borishi xitoy tilini o'rganishga bo'lgan talabni qo'yadi. Xitoy tili iyeroglifini monografik tarzda sinxron va diaxron aspektda tadqiq etish, uning rivojlanish yo'li, funksional, leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini ochib berish zarurati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari va shu sohaga tegishli bo'lgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida 把 "bǎ" iyeroglifi old ko'makchi sifatida xitoy va xorijiy olimlar tadqiqotlarida ko'p o'rganilgan. Xitoy tilshunosligida bunday gaplar 把 "bǎ" konstruksiyali gaplar deyilib, maxsus gap tuzilishiga ega bo'ladi. Xitoy tilshunoslari 黎锦熙 Li Dzinsi, 王力 Vang Li, 吕叔湘 Lyuy Shusiang, 王还 Vang Xay, 薛凤生 Syue Fengsheng, 崔希亮 Suy Silyang, 桥本万太郎 M.Hasimoto, Sybesma, 张旺熹 Djang Vangsi, 张伯江 Djang Bojyang, 沈家煊 Shen Dzyasyuan¹ hamda rus xitoyshunoslardan A.A. Dragunov, S.Y. Yaxontov, V.I. Gorelov² kabi olimlar o'zlarining xitoy tili grammatikasiga oid tadqiqotlarida 把 bǎ old ko'makchisi ishtirokidagi gap, uning kelib chiqishi, hamda grammatik, semantik, kognitiv, strukturaviy xususiyatlari ustida ish olib borganlar. 王蕾 Vang Ley 把 "ba" old ko'makchili gapni ingliz tilida ifodalanishi tadqiqi bo'yicha³, 刘培玉 Liu Peiyuy 把 "ba" old ko'makchisi ishtirokidagi gapning ko'p tomonlama tadqiqi bo'yicha⁴ shug'ullangan. Vang Lyao-i 把 "ba" iyeroglifining dastlabki fe'l ma'nosida ishlatilishi haqida ma'lumot berib o'tgan⁵.

把 "ba"ning hisob so'zi vazifasida ishlatishi borasidagi fikrlar 叶桂柳 Ye Guychenning⁶, 刘世儒 Lyu Shiru va 金桂桃 Dzin Guytaolar tadqiqot ishlarida aytib o'tilgan⁷. A.A. Karimov xitoy tilida hisob so'zlar haqidagi mongrafiyasida 把 "ba"

¹ 黎锦熙. 新著国语文法. – 长沙, 湖南新华印刷集团, 2007. – 页. 6,7.; 王力. 中国语法理论. – 北京: 中华书局, 2015. – 页. 12.; 吕叔湘. 汉语语法论文集. – 北京: 商务印书馆, 1999. – 页. 177-200.; 王还. "把"字句中的宾语. – 北京: 中国语文学报, 1985. – 第1期. – 页. 48-51.; 薛凤生. 试论"把"字句的予以特征. – 北京: 语言教学与研究学报, 1987. – 第1期. – 页. 5.; 崔希亮. "把"字句的若干句法语义问题. – 北京: 世界汉语教学学报, 1995. – 第3期.; Hashimoto M. Language and literary studies // Observation on the passive construction. – Berlin: De Gruyter Mouton, 1978. – P. 59-71.; Sybesma R. Causatives and accomplishments: The case of Chinese Ba. – Dordrecht: Holland institute of generation linguistics, 1992.; 张旺熹. 把字结构的语义及其语用分析. – 北京: 语言教学与研究学报, 1991. – 第3期. – 页. 88-103.; 张伯江. 说把字句. – 上海: 学林出版社, 2019.; 张伯江. 论"把"字句的句式语义. – 语言研究, 2000. – 第1期. – 页. 28-40.; 沈家煊. 如何处置"处置式"? 论"把"字句的主观性. – 北京: 中国语文学报, 2002. – 第5期. – 页. 387-389.

² Драгунов А.А. Исследование по грамматике современного китайского языка. – Москва, Ленинград: Академия наук, 1952. – С. 125.; Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. – Ленинград: Ленинградский университет, 1957. – С. 25.; Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – Москва: Просвещение, 1989. – С. 70.

³ 王蕾. "把"字句及英语表达研究. – 上海: 上海三联书店, 2018.

⁴ 刘培玉. 现代汉语把字句的多角度探究. – 武汉: 华中师范大学出版社, 2009.

⁵ Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. – Москва: Иностранная литература, 1954. – С. 120.

⁶ 叶桂柳. 明代汉语两此研究. – 长沙: 岳麓书社, 2008.

⁷ 刘世儒. 魏晋南北朝量词研究. – 北京: 中华书局, 1965. – 页. 45.; 金桂桃. 宋元明清动量词研究. – 武汉: 武汉大学出版社, 2007. – 页. 27.

iyeroglifini qayd etib, hisob soʻzidan tashqari boshqa soʻz turkumlarga tegishli boʻla olishini misol tariqasida keltirgan⁸.

Biroq 把 “ba” iyeroglifining feʼl, hisob soʻzi, koʻmakchi, ot soʻz turkumiga tegishli vazifalari va har bir soʻz turkumi ichidagi semantik qatorlari alohida oʻrganilmagan.

把 “ba” iyeroglifidagi polifunksionallik nafaqat uning grammatik vazifasini, balki leksik-semantik maʼnosi, grammatik xususiyatlari, sintaksisdagi oʻrnini, polisemik va omonimik soʻz ekanligini koʻrsatib beradi. Ushbu xususiyatlar 把 “ba” iyeroglifini atroflicha tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Xorijiy sharq mamlakatlar tillarini oʻrganish va tilshunoslikning nazariy masalalari” hamda “Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: anʼanalar va hozirgi zamon ilmiy maktablari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi xitoy tili 把 “ba” iyeroglifining shakllanish va rivojlanish bosqichlaridagi gap modellarini sinxronik-diaxronik aspektda dalillash hamda uning grammatik funksiyalarini aniqlash, 把 “ba”ning ushbu funksiyalardagi leksik-semantik maʼnolarini tasniflab asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Xitoy tili 把 “ba” iyeroglifi polifunksionalligi tadqiqining nazariy asoslari va yondashuvlarini yoritish orqali uning grammatik vazifasidagi va leksik maʼnosidagi oʻzgarish jarayonini ochib berish;

把 “ba” old koʻmakchisi ishtirokidagi gapning va 把 “ba” hisob soʻzining shakllanishi omillari va rivojlanish bosqichlarini gap modellarini ishlab chiqish orqali dalillash hamda 把 “ba” koʻmakchisini distributsiya orqali ishlatish qoidalarini belgilash;

把 “ba” polisemantik soʻzining leksik-semantik maʼnolarini tasniflash, ushbu maʼnolarning kengayishi va til muhitida ishlatishini ochib berish;

把 “ba” iyeroglifining omonimik xususiyatlarini ochib berish, uning gap strukturasidagi orʻnini aniqlash va omonimik turlari tasnifini asoslash.

Tadqiqot obyektini xitoy tili 把 “ba” iyeroglifi tashkil etadi. Tadqiqotga manba sifatida 生死疲劳 [shēngsǐ píláo] – (“Hayot va oʻlim charchoqlari”), 梦开始的地方 [mèng kāishǐ de dìfāng] – (“Orzular boshlanadigan joy”), 人世间 [rén shìjiān] – (“Odamlar dunyosi”), 绯闻 [fēiwén] – (“Shaxsiy hayot haqida gʻiybatlar”)dan foydalanildi. Shuningdek, 把 “ba”ning shakllanish va rivojlanish bosqichlaridagi modellarni ochib berishda Pekin tillar universitetining xitoy tili korpusiga ham murojat qilindi.

Tadqiqot predmetini 把 “ba” iyeroglifining grammatik, leksik-semantik xususiyatlari tashkil qiladi.

⁸ Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар [Лексик семантик, структурал ва функционал таҳлил]. – Тошкент: Фан ва технолоиялар, 2003. – Б. 97.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, distributiv, komponent tahlil va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xitoy tilida polifunksionallik mavjudligining tamoyillari va 把 “ba” iyeroglifi haqidagi nazariy yondashuvlarni o‘rganilaganligi natijasida 把 “ba”ning fe‘l, old ko‘makchi, hisob so‘zi, ot, ko‘makchi vazifasidagi gap modellari aniqlangan va shakllantirilgan;

grammatikalashish jarayoni 把 “ba”ning fe‘l vazifasidan old ko‘makchi vazifasiga o‘tishiga sabab bo‘lgani, 把 “ba” fe‘lining asos ma‘nosi 把 “ba” hisob so‘zi va 把 “ba” ot so‘z turkumidagi ma‘nolarining hosil bo‘lishiga, 把 “ba” hisob so‘zining tahminiy miqdorni ifodalovchi ma‘nosi 把 “ba” ko‘makchi ma‘nosini hosil bo‘lishiga bevosita ta’sir etganligi asoslangan.

把 “ba”ning so‘z turkumlariga tegishli leksik ma‘nolari kengayishi bo‘yicha tasnifi ishlab chiqilgan, shuningdek, 把 “ba” polisemantik so‘zining fe‘l, old ko‘makchi, hisob so‘zi, ot yoki ko‘makchi vazifasida kelganda ma‘lum semasi faollashishi distributsiyaga bog‘liqligi dalillangan.

to‘rt o‘lchovli matritsa asosida 把 “ba” iyeroglifining omonimiyada guruhlashtirish tasnifi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra 把 “ba” ham mustaqil ham yordamchi so‘z sifatida yettita guruhda leksik, konversion va iyeroglifik omonim so‘z sifatida kela olishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Hozirgi xitoy tilidagi 把 “ba” iyeroglifi semantikasini belgilashda nutqiy matn xususiyatidan kelib chiqib, so‘zlovchining vaziyatdagi o‘rni e’tiborga olinishi shartligi asoslab berilgan;

把 “ba” iyeroglifining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari belgilangan hamda ularning ma‘no va vazifaviy ko‘lami badiiy asarlardagi misollar yordamida ko‘rsatib berilgan;

把 “ba”ning old ko‘makchi, fe‘l, hisob so‘zi, ot va ko‘makchi sifatida gap strukturasidagi vazifasini ajratib berish mezonlari ishlab chiqilgan;

Mavzuga oid to‘plangan materiallar va amalga oshirilgan tahlillar o‘zbek xitoyshunosligida darslik va o‘quv qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Tadqiqot natijalaring ishonchliligi dissertatsiyada foydalanilgan nazariy fikrlarning ishonchli manbalardan olinganligi, ilmiy mavzu mohiyatidan kelib chiqib tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga mosligi, muammoni to‘g‘ri qo‘yilgani, olingan ilmiy, amaliy natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalaring ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati Xitoy tilidagi bitta iyeroglifni ko‘rib chiqish orqali tilshunoslikdagi mazkur turdagi tadqiqotlarga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishi bilan izohlanadi. Bu o‘z navbatida boshqa polifunksional so‘zlarning semantik maydonini aniqlash imkonini yaratadi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalaridan oliy o'quv yurtlari, xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik yo'nalishi talabalariga "Xitoy tili tarixi", "Xitoy tili leksikologiyasi", "Xitoy yozuvi asoslari", "Xitoy tilining nazariy grammatikasi", "Mutaxassislikning nazariy masalalari" kabi fanlardan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, xitoy tili masalalariga bag'ishlangan maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xitoy tili 把 "ba" iyeroglifining polifunksional xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

Xitoy tilidagi 把 "ba" so'zi grammatikasiga oid nazariy xulosalar 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) ta'lim yo'nalishi uchun "Xitoy tili (HSK5 grammatikasi va yozuv mashqlari) o'quv qo'llanmasining yaratilishiga asos bo'lgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024-yil 28-dekabrda 02-04-0212972-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ta'lim yo'nalishining xitoyshunoslik sohasi xitoy tili darajasini (C1) oshirish bo'yicha grammatik bilimlar haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan;

Xitoy tili 把 "ba" iyeroglifiga doir tadqiqotning ilmiy natijalari va ma'lumotlaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Tig'iz payt", "Yaxshi kayfiyat" radiodasturlarini samarali tashkil etishda, ularning ssenariyalarini tuzishda foydalanildi ("O'zbekiston" teleradiokanalining 2024 yil 27-sentyabrdagi 04-37-1072-son ma'lumotnomasi). Xitoy tili iyeroglifing tarix silsilasida bir kategoriyadan boshqa kategoriyaga o'tishidagi jarayonlar haqidagi ilmiy fikrlar muxlislar qiziqishini orttirgan. Natijada hozirgi xitoy tilidagi 把 "ba" iyeroglifi semantikasini belgilashda nutqiy matn xususiyatidan kelib chiqib, so'zlovchining vaziyatdagi o'rni e'tiborga olinishi shartligi asoslab berilganligi efirga uzatilgan eshittirishlarning ilmiy dalillarga boy va ilmiy-ommabop bo'lishini ta'minlagan;

把 "ba" iyeroglifining polifunksional xususiyatlari bo'yicha olingan xulosalardan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy institutining ilmiy yo'nalishlari hamda "Xitoy tili" fanidan mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanmoqda (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy institutining 2024 yil 6 sentyabrdagi 210/24-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarda xitoy tili grammatikasi, leksikologiyasi, xitoy iyerogliflarining leksik-semantik va grammatik jihatlari bo'yicha kengroq ma'lumot hosil bo'lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi Tadqiqot mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “把 “ba” iyeroglifi tadqiqining nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslikda polifunksionallik nazariyasi, Xitoy tilshunosligida 把 “ba” iyeroglifining o'rganilishi, hamda 把 “ba” grammatik vazifasining o'zgarishi haqida yoritilgan.

Birinchi bobning 1-paragrafi “**Tilshunoslikda polifunksionallik nazariyasi**” deb nomlanadi. Inson nutqiga xos xususiyatlardan biri bu til birliklarining shakl va mazmun jihatdan o'zgarishidir. Tilshunoslikda so'zning mohiyatini tadqiq etish juda qadimdan boshlangan va keyingi davrga kelib olimlarning so'zni o'rganish bo'yicha qarashlari turli guruhlarga ajralganligi ko'zga tashlanadi⁹.

Tilni tushunish va uni qo'llash jamiyat tafakkur tarziga bog'liqdir. Shu ma'noda, xitoy tili so'zlarida polifunksionallik mavjudligining quyidagi asosiy uch tamoyili mavjud.

Birinchi, xitoy tilining o'z ichki omili. 朱德熙 Dju Desining fikricha: “Tilga xoslik chog'ishtirilganda ko'rinadi, agar chog'ishtirilmasa tilga xos xususiyat ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham xitoy tilining o'ziga xos xususiyati boshqa til oilalari bilan muqoyasa qilinganda namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, Xan millatining an'anaviy tafakkur qilish usuli. Gap tuzishda asosan ichki ma'noning o'zaro bog'lanishi muhim o'rin tutadi.

Uchinchi, til vaziyatining ta'siri. Biron asarni o'qiyotganda yoki biron kishi bilan suhbatlashayotganda gapdagi so'z qaysi ma'noda kelgani aniq tushuniladi, albatta, til muhiti ravshanlashadi. Bu holat gapdagi so'zning tabiatini aniqlashtirishga yordam beradi va noto'g'ri tushunishning oldini oladi.

Bir necha yillik tarixga ega bo'lgan xitoy madaniyati xitoyliklarning tafakkuriga, o'ziga xos fikrlashiga ta'sir ko'rsatgan. Odamlar qalbidagi barcha o'ylayotgan narsalarni til orqali to'laligicha ifoda etolmagan. Shu bois so'zlarni ko'p ma'noda ishlatish jarayoni vujudga kelgan.

⁹ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – М: Академия наук, 1958. – №1. – С. 43.; Агаян Э.Б. Введение в языкознание. – Ереван: ЕГУ, 1960. – С. 100.; Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды. – М: Министерства просвещения, 1956. – С. 131.; Пешковский А.М. Сборник статей. – Л: Б. и, 1925. – С. 129; Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М: Иностранная литература, 1955. – С. 28.; Виноградов В.В. Русский язык. – М: Высшая школа, 1986. – С. 12.

Harfiy tillardagi yozuvda har bir harf asosan yagona tovush birligini ko'rsatadi, iyeroglifik yozuvda esa "bitta iyeroglif butun bir so'z, bitta morfema, bir bo'g'inni ifodalash uchun xizmat qiladi"¹⁰. Xitoy yozuvi "iyeroglifik yozuv" bo'lib, xiyoyliklar uni 汉字 [hànzì] (xitoy yozuvi yoki iyerogliflar) deb ataydilar. Tilshunoslikda bu tushuncha "ideografik yozuv" atamasi orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, iyeroglifning yana quyidagi ifodalovchi bitta jihati bor: "Bitta iyeroglif – tilning muayyan ma'no birligiga tengdir"¹¹.

Bizning misolimizda bitta iyeroglif, ya'ni 把 "ba" iyeroglifi nafaqat o'zining semantik ma'nosi ko'pligi bilan ajralib turadi, balki uni polifunksional birlik sifatida ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Sababi lingvistik birliklarni, jumladan, polifunksional so'zlarni o'rganishda faqat uning nutqdagi sintaktik vazifasini aniqlashga doir xususiyatiningina emas, balki so'zning leksik ma'nosi, uning boshqa leksema bilan birikishi, ya'ni distributsiya imkoniyatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni ham hisobga olish zarur.

Bobning 2-paragrafi **"Xitoyshunoslikda 把 "ba" iyeroglifining o'rganilishi"** deb nomlanadi. Xitoy tilshunosligida 把 "ba" iyeroglifi tadqiqi, uning old ko'makchi, hisob so'zi vazifasida kelishi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Olimlar o'zlarining tadqiqotlarida qator mulohazalarni bildirib, hozirgi xitoy tilida qo'llanilayotgan 把 "bǎ" old ko'makchisi ishtirokidagi gapning tuzilishi, shakllanishi bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar keltirganlar. Masalan, 王力 Vang Li 处置式 [chùzhìshì] *harakat maylini amalga oshirishda boshqarish, ta'sir ko'rsatish* ma'nosi ishlatilgan darak gaplarda bir vaqtning o'zida "boshqaruv", "joylashuv" ma'nolari ham bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan¹². 吕叔湘 Lyuy Shusyang esa 把 "bǎ" old ko'makchisini gapda qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borib, qanday holatda uni ishlatish zarurligi, qaysi payt esa ham ishlatasa, ham tashlab ketsa bo'lishi, hamda qayerda uni qo'llash kerak emasligi haqida fikrlar bildirgan¹³. 王还 Vang Xay 把 "bǎ" old ko'makchili gapdagi to'ldiruvchining xususiyati ustida tadqiqot olib borib, uning aniq, noaniq va maxsus holatlarda istifoda etilishini ko'rsatib bergan¹⁴. 薛凤生 Syue Fengsheng, 崔希亮 Tsuy Silyang, 金立鑫 Szin Lisin, Emely Bender kabi olimlar 把 "bǎ" old ko'makchili gapning funksional tadqiqi va uning ishlatish xususiyatlari yuzasidan izlanishlar olib borganlar¹⁵. Bu bo'yicha 曹逢甫 Tsao Fengfuning qarashlari muhim hisoblanadi. Ya'ni olim 把 "bǎ" dan keyin keladigan to'ldiruvchida gap mavzusining bir qator xususiyatlari mavjud, ammo u

¹⁰ Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар [Лексик семантик, структурал ва функционал таҳлил]. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2003. – Б. 97.

¹¹ О'sha манба. – Б. 98.

¹² 王力. 中国语法理论. – 山东教育出版社, 2015. – 页. 12.

¹³ 吕叔湘. 汉语语法论文集. – 北京: 商务印书馆, 1999. – 页 178-179.

¹⁴ 王还. "把"字句中 "把" 的宾语. – 北京: 中国语文学报, 1985. – 第 1 期. – 页. 48-51.

¹⁵ 薛凤生. 功能主义和汉语语法. – 北京: 北京语言学院出版社, 1994. – 页. 34-59.; 崔希亮. "把"字句的若干语法语义问题. – 北京: 世界汉语教学学报, 1995. – 第 3 期. – 页. 12-21.; 金立鑫. "把"字句的句法, 语义, 语境特征. – 北京: 中国语文学报, 1997. – 第 6 期. – 页. 415-423.; Emely Bender. The syntax of mandarin Ba: Reconsidering the verbal analysis. – Dordrecht: Journal of Eastern Asian Linguistics, 2000. – Vol.9. – P. 105-145.

etakchi o‘rinda turmaydi, deb aytib o‘tgan¹⁶. 王士元 Vang Shiyuan (W.Wang), 桥本万太郎 [Qiáo běn wàntài láng] (M. Hasimoto), 李英哲 [Lǐ Yīngzhé] (Y. Li), Sybesma, 邹科 Zou Ke kabi mutaxassislar 把 “bǎ” old ko‘makchili gapning strukturasi ustida tadqiqotlarni amalga oshirganlar¹⁷. Hozirda xitoy tilshunosligida 把 “ba” old ko‘makchili gapni kognitiv tadqiqi yangi bir yo‘nalish sanaladi. Bu bo‘yicha 张伯江 Djang Bojyang, 张旺熹 Djang Vangsi va 沈家煊 Shen Jyasyuan singari olimlarning ishlarini keltirish mumkin¹⁸.

把 “bǎ” iyeroglifi hisob so‘zi sifatida e’tirof qilingan tadqiqotlar nisbatan kam, jumladan 叶桂柳 Yè Guìchēnning “Tsing davri hikoyalari tadqiqi” asarida 把 “bǎ”ning hisob so‘zi vazifasida kelishi haqida mulohazalar bor. Muallifning Ming davridagi hisob so‘zlarga bag‘ishlangan tadqiqotida 把 “bǎ”ning hisob so‘zi sifatida qo‘llanilishi va uning suyuq moddalarga nisbatan ishlatish holatlari ko‘satib o‘tilgan¹⁹.

张爱民 Djang Ayming, 吴剑峰 Wu Jyangfenglar taxmin, chamani ifodalovchi yordamchi so‘zlar haqidagi izlanishlarida 把 “bǎ”ning yordamchi so‘z vazifasida ham kela olishi xususida so‘z yuritgan²⁰.

A.A.Karimovning 把 “ba”ni hisob so‘zidan tashqari boshqa so‘z turkumlarga mansub bo‘la olishi, haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan²¹.

Keltirilgan ishlardan ko‘rinib turibdiki, xitoy tilshunosligida 把 “ba”ning old ko‘makchi ekani borasida ko‘pgina tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, uni hisob so‘zi sifatida qayd etgan izlanishlar ham bor. Ishimizning maqsadi 把 “ba” iyeroglifining barcha ma’no va funksiyalarini umumlashtirgan holda tadqiq etishdan iborat.

Bobning 3-paragrafi **“把 “ba” grammatik vazifasining o‘zgarishi”** deb nomlanadi.

So‘zning grammatik vazifasida o‘zgarish sodir bo‘lishi masalasida ko‘pgina olimlar o‘zlarining fikrlarini bayon etganlar. Hopper & Traugott (Xopper va Traugott)larning fikricha “so‘zning grammatik vazifasida o‘zgarish sodir bo‘lishining asosiy sababi bu qaytadan tahlil qilish va xulosa chiqarish”dadir²². 沈家煊 Shen Jyasyuanning yozishicha so‘zning grammatik vazifasida o‘zgarish sodir

¹⁶ 曹逢甫. 汉语句子与子句结构. – 北京: 北京语言大学出版社, 2005. – 页. 128-150.

¹⁷ 王士元. Addition support for the transformational approach to Chinese Ba and Bei. – Chongching: Journal of Language and social interaction, 1972. – Vol,5. – №3. – P. 422-431.; 桥本万太郎. 李英哲. Hashimoto. Observation on the passive construction. – Berlin: De Gruyter Mouton, 1978. – №5. – P. 59-71.; Sybesma R. Causatives and accomplishments: The case of Chinese Ba. – Dordrecht: Holland institute of generative linguistics, 1992.; 邹科 Zou Ke. The syntax of the Chinese Ba construction. – Cambridge: Journal of linguistics, 1993. – Vol,31. – №4. – P. 715-736.

¹⁸ 张伯江. 论 “把”字句的句式语义. – 北京: 语言研究学报, 2000. – 第 1 期. – 页. 28-40.; 张旺熹. “把”字句的位移图式. – 北京: 语言教学与研究学报, 2001. – 第 3 期. – 页. 1-10.; 沈家煊. 如何处置 “处置式”? 论 “把”字句的主观性. – 北京: 中国语文学报, 2002. – 第 5 期. – 页. 387-389.

¹⁹ 叶桂柳. 明代汉语量词研究. – 长沙: 岳麓书社, 2008. – 页. 98.

²⁰ 张爱民, 吴剑峰. 概数助词“把”字的语法分析. – 徐州: 徐州师范大学学报, 1999. – Vol,25. – №1. 页. 1-4.

²¹ Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар [Лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил]: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 132-141.

²² Hopper P.J. & Traugott E.C. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge university, 2003. / Beijing: Pekin university, 2005. – P. 176.

bo‘lishi 5 ta yo‘l asosida kechadi: metafora, xulosa, umumlashtirish, uyg‘unlashtirish va singdirishdir²³. 吗清华 Ma Tsingxua so‘zning grammatik funksiyasidagi o‘zgarishini, “voqelikdagi vazifa, psixologik kuch, til bilan muloqot, til ichidagi kuch” bilan bog‘lagan²⁴. 刘坚 Lyu Jyan, 曹广顺 Sao Guangshun, 吴福祥 Vu Fusyang singari xitoyshunoslarning fikrlari bir-biriga o‘xshash bo‘lib, quyidagilarni bayon etadilar: qaytadan tahlil qilish, sintaktik vazifa va til vaziyatining, shuningdek, so‘z ma‘nosining o‘zgarishi leksemaning grammatik funksiyasida o‘zgarish sodir bo‘lishiga olib keladi²⁵.

把 “bǎ”dagi bu jarayonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Sintaksisdagi o‘rnini o‘zgarishi bo‘lib, 秦 Tsing davrigacha bo‘lgan vaqt davomida 把 “bǎ” gapda faqat fe‘l vazifasida ishlatilgan.

竖亥右手把算，右手指青丘北²⁶. [Shùhài yòushǒu bǎ suàn, yòushǒu zhǐ qīngqiūběi.] – *Shuxay o‘ng qo‘li bilan hisoblash aslahasini ushlab, chap qo‘li bilan Tsing tsyov davlatining shimol tarafini ko‘rsatdi.*

2) Qayta tahlil qilish. Masalan, agar gapni “(A, V), S” strukturada desak, qayta tahlil qilish orqali gap “A, (V, S)” shaklga o‘zgaradi.

汾山把一枝木吹两下²⁷. [Guīshān bǎ yī zhī mù chuī liǎng sān xià.] – *Guy Shan daraxtga qarab ikki marta pufladi.*

3) Sintaktik muhit. Traygottning fikricha, so‘z muayyan grammatik vazifasining o‘zgarishi aniq bir sintaktik muhitda ro‘y beradi²⁸. 把 “bǎ” 秦 Tsing davrigacha bo‘lgan vaqt davomida gapda markaziy bo‘lak vazifasini bajargan. Xan davriga kelib bitta gapda boshqa fe‘llar bilan birga ishlatilganli sababli, 把 “bǎ”ning asl leksik ma‘nosi asta-sekin yo‘qola boshlagan. Tang davrida esa 把 “bǎ”ning fe‘l ma‘nosi qo‘llanilishi biroz murakkablashgan, bu esa o‘z navbatida uning leksik ma‘nosiga ta’sir qilgan. Shunday qilib, mazkur jarayonlar 把 “bǎ”ning fe‘ldan old ko‘makchi vazifasiga o‘tishiga sharoit yaratib bergan.

其于王事，出军行师，把旌杖钺，誓士众²⁹. [Qí yú wángshì, chū jūnxíng shī, bǎ jīngzhàng yuè, shìshì zhòng.] – *U davlat ishlarida, armiyani urushga olib chiqishda qo‘mondon bo‘lib, bayroqni qo‘lda ushlab, barchaning oldida qasamyod qildi.*

4) Til tizimini tartibga solish. Grammatika bir butun hodisadir, har bir gap shakli o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro chegara bor³⁰. Xitoy tilida ikkita fe‘lning bir vaqtda kelishi avval bo‘lgan tizimga ta’sir ko‘rsatadi va yangi muvozanatni

²³ 沈家煊. “语法化”研究综观. – 北京: 外语教学与研究, 1994. – №4. – 页. 22.

²⁴ 吗清华. 词汇语法化动因. – 长春: 汉语学习学报, 2003. – 页. 19.

²⁵ 白维国, 刘坚, 曹广顺. 近代汉语虚词. – 北京: 商务印书馆, 2018. – 页. 70.; 吴福祥. 再论处置式的来源. – 北京: 语言研究学报, 2003. – 第 3 期. – 页. 1-14.

²⁶ 山海经. 卷九. 海外东经 //

<https://bcc.blu.edu.cn/zh/search/5/%E7%AB%96%E4%BA%A5%E5%8F%B3%E6%89%8B%E6%8A%8A%E7%AE%97>

²⁷ <http://wuming.xuefo.net/show2.asp?id=2797>

²⁸ Hopper P.J. & Traugott E.C. Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge university, 2003. / Beijing: Pekin university, 2005. – 页. 176.

²⁹ 晋书. 卷二十七 // <http://www.guoxue123.com/shibu/0101/00jsj/026.htm>

³⁰ 石毓智. 汉语语法化的历程. – 北京: 北京大学出版社, 2001. – 页. 51.

oʻrnatish uchun, albatta, gapdagi ikkita feʼldan bittasini markaziy gap boʻlagi sifatida tanlash shartini qoʻyadi. Tanlanmagan boshqa feʼlning leksik maʼnosida toʻxtovsiz oʻzgarishlar boʻlib, grammatikalashish jarayoni yuz beradi.

5) Idrok qilish qonuniyati. Insonlar tafakkuri aniqlikdan mavhumlikka qarab rivojlanib boradi. Bu qonuniyatning borligi sababli soʻzlar ham toʻxtovsiz oʻzgarishda boʻladi. Natijada soʻzlarda passivlashish jarayoni kuzatiladi. Soʻz asl maʼnosining yoʻqolib borishi yoki uning boshqa vazifa kasb etishi bois grammatik funksiyada oʻzgarish roʻy beradi.

Taʼkidlash kerakki, bir necha zamonlar ichida, ayniqsa 唐 Tang davridan keyin 把 “bǎ” ham mustaqil soʻz, ham yordamchi soʻz sifatida istifoda etilgan. Hozirgi zamon xitoy tilida 把 “bǎ” feʼl vazifasida juda kam ishlatiladi, ammo uning ot, old koʻmakchi, hisob soʻzi sifatida ishlatilishi koʻlami kengaygan.

Ilmiy tadqiqotning “把 “ba” iyeroglifi polifunksionalligining shakllanish manbari” nomli ikkinchi bobida 把 “bǎ” old koʻmakchisining yuzaga kelish omillari, 把 “bǎ” hisob soʻzining istifoda etilishi hamda 把 “bǎ”ning koʻmakchi vazifasida ishlatilishi haqida yoritilgan.

Bobning 1-paragrafi “把 “bǎ” old koʻmakchisining yuzaga kelish omillari” deb nomlanadi. Bugungi kunda Xitoy tilshunosligida keng ishlatilayotgan old koʻmakchilarning feʼldan kelib chiqqanligi masalasi koʻp yillardan buyon mutaxassislar diqqat-markazida turadi. I.T. Zograf shunday yozadi: “Har bir davrdagi xitoy tilining rivojlanish yoʻlini koʻrib chiqayotganda, birinchi navbatda oʻsha zamondagi yordamchi soʻzlar va ularning maʼnosini atroflicha oʻrganish talab etiladi”³¹. 把 “bǎ” feʼli zamonlar osha har xil omillar taʼsirida turli grammatik modellar asosida oʻzgarib, feʼllik maʼnosi kuchsizlanib, old koʻmakchi vazifasi shakllangan. Biz 把 “bǎ”ning mustaqil soʻz turkumidan yordamchi soʻzga oʻtishida u ishtirok etgan ikkita feʼl ketma-ket keladigan gapni asosiy omil deb hisoblaymiz. Xitoy tili grammatikasida 处置 [chùzhì] *harakat maylini amalga oshirishda boshqarish, taʼsir koʻrsatishni ifodalashda* 把 “bǎ” old koʻmakchili gapni namunaviy gap shakli sifatida koʻrsatib oʻtiladi³². Uning oʻziga xos xususiyati shundaki, 把 “bǎ”da taʼkidlash ohangining mavjudligi tilni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi.

秦 Tsin davrigacha 把 “bǎ” faqatgina feʼl vazifasida ishlatilib, asosan, 握 [wò] “*qoʻlda ushlamoq*” 拿 [ná] “*olmoq*” maʼnolarini anglatgan. Modeli quyidagicha boʻlgan: “把 feʼli + Toʻldiruvchi”, toʻldiruvchi oʻrnida asosan ot soʻz turkumiga tegishli leksema keladi. 汉 Xan, 魏晋 Vey Dzin sulolalari davriga kelib “把 Feʼli + 1-Toʻldiruvchi + Feʼl + 2-Toʻldiruvchi” koʻrinishdagi model ishlatila boshlandi. 唐 Tang sulolasi davrida 把 “bǎ”ning qoʻllanishi bilan bogʻliq yangi model paydo boʻldi: “把 Feʼli + 1-Toʻldiruvchi + Feʼl + (2-Toʻldiruvchi)”. Bu davrda gapdagi asosiy maʼno markaziy feʼlga borib taqaladi, shuning uchun 把 “bǎ”ning feʼl

³¹ Зograf. История изолирующего языка – М: УРСС, 2016. – С. 19.

³² 王力. 中国现代语法. – 北京: 商务印书馆, 1985. – 页. 82-86.

sifatidagi leksik ma'nosini yanada kuchsizlangan. Keyingi davrlarda 把 “bǎ”da old ko'makchili xususiyat ko'proq namoyon bo'la boshladi. Mazkur davrda quyidagi gap modellari ishlatila boshladi: “把 Old ko'makchisi + To'ldiruvchi + Fe'l” va “把 old ko'makchisi + To'ldiruvchi + Fe'l + 补语³³”. Ushbu shaklda 把 “bǎ” ilk bor old ko'makchi vazifasida kelgan.

阿郎把数都计算，计算钱物千足强³⁴。[Āláng bǎ shù dū jìsuàn, jìsuàn qiān wǔ qiān yǎ qiáng.] – *Alang miqdorni hammasini hisoblab chiqdi, hisoblagan boyliklari ming o'ramdan ortiq chiqdi.*

把 “bǎ” old ko'makchili gap shakllanishi jarayonida gap strukturasidagi ichki o'zgarishlar katta rol o'ynaydi. Strukturadagi o'zgarishlarning ahamiyati shundaki, 把 “bǎ”ning dastlabki ishlatilgan grammatik tuzilishini yanada rivojlantirish, uning hozirgiga o'xshash gap tuzilishini kengaytirish orqali shunday gap shakli shakllangan. Bundan tashqari, she'rlardagi ritmga rioya qilish va iyerogliflar sonini cheklashga bo'lgan talabni qondirish uchun ikkinchi fe'ldan keyingi ikkinchi to'ldiruvchini tushirib qoldirilish odatiy holga aylangan.

Bobning 2-paragrafi “把 “bǎ” hisob so'zining istifoda etilishi” deb nomlanadi. Hozirgi zamon xitoy tilida hisob so'zlar ma'lum leksik tizim sifatida shakllangan. Xitoy tilshunosligida hisob so'zlar ustida tadqiqot olib borgan ko'pgina olimlar 把 “bǎ” hisob so'ziga ta'rif berib, fikrlarning asosini 把 “bǎ”ning dastlabki fe'l ma'nosini bilan bog'laydilar³⁵. 刘世儒 Lyu Shiru dastlab 把 “bǎ” hisob so'zini o'lchov birligi sifatida ta'riflagan³⁶. Uning fikricha, 把 “bǎ” hisob so'zi sifatida Xan davrida ko'zga tashlansa, Janubiy-shimoliy sulolar zamonida o'lchov birligini ifodalagan.

Hozirgi xitoy tilida hisob so'zlar ikki katta guruhga: nom hisob so'zlari va harakat hisob so'zlariga bo'linadi. Ushbu tasnifga binoan 把 “bǎ” hisob so'zi ikkiga ajraladi: 把 “bǎ” nom (ot) hisob so'zi³⁷ va 把 “bǎ” harakat (fe'l) hisob so'zi³⁸. 把 “bǎ” nom hisob so'zi ham ikkiga bo'linadi: jamlovchi va donabay hisob so'zi.

Dastlab 把 “bǎ” nom hisob so'zining jamlovchi ma'nosini 把 “bǎ” donabay hisob so'zidan oldin shakllangan. Jamlovchi hisob so'zlar juft yoki bir guruh hisoblanadigan otlar bilan birga ishlatiladigan hisob so'zlardir. 把 “bǎ” jamlovchi hisob so'zi “*siqim, bog'lam*” ma'nolarida keladi. Bunda talab shunday bo'lganki, ob'ekt, albatta, qo'l bilan mahkam ushlana oladigan narsa bo'lishi kerak. Shu tariqa,

³³ Харакат микдорини билдирувчи хол (хитой тилида буюй деб аталади) – хитой тили грамматикасида оддий холдан фарқ қилиб ажратилади. Энг кўзга ташланадиган фарқи буюй феъл-кесимга нисбатан кейинги позицияни эгаллайди ва ҳаракат холи вазифасини бажараётган сўзлар учун ишлатилади.

³⁴ 敦煌变文集新书. 卷一 // <https://zh.wikisource.org/zh-hans/%E8%91%A3%E6%B0%B8%E5%8F%98%E6%96%87>

³⁵ 刘月华, 潘文娉, 故妮. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2004. – 页. 264.; 祝敏彻. 近代汉语句法史稿. – 郑州: 中州古籍出版社, 1996. – 页. 42.; Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – Москва: Просвещение, 1989. – С. 70.; Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. – М: Иностранная литература, 1954. – С. 120.

³⁶ 刘世儒. 魏晋南北朝量词研究. – 北京: 中华书局, 1965. – 页. 45.

³⁷ Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар [Лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил]: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 68-83.

³⁸ O'sha manba. – Б. 83-94.

把 “bǎ” o‘lchov va taroz vazifasini ham o‘tagan. Gapning modeli quyidagicha bo‘lgan: “*拱把 hisob so‘zi + 之 Struktur yuklamasi + Ot*”. G‘arbiy Xan davrida uning bir ko‘rinishi shakllangan. Modeli esa quyidagicha: “*Fe‘l + — soni + 把 jamlovchi hisob so‘zi*”. 魏晋南北朝 Vey Dzing Janubiy-Shimoliy sulolalar davrida 把 “bǎ” jamlovchi hisob so‘zining ishlatish ko‘lami yanada kengaydi. “*Ot + Son + 把 hisob so‘zi*” va “*Son + 把 hisob so‘zi + Ot*” ko‘rinishdagi gap modellari paydo bo‘ldi. 宋 Song davridan e’tiboran 把 “bǎ” jamlovchi hisob so‘zining grammatik ma’nosida o‘zgarish sodir bo‘lib, u ham qattiq jismlar, ham suyuq holatdagi jismlarning o‘lchovi uchun ishlatilgan.

又，口赤稻一白，米里著蒿叶一把，白盐一把，合口之，即绝白³⁹。
[Yòu, wéi chī dào yī jiù, mǐ lǐ zhe hāo yè yī bǎ, bái yán yī bǎ, hé wéi zhī, jí jué bái.]
Yana, bir hovoncha tuyib maydalangan qizil guruchdan solib, uning ustiga bir siqim shuvoq va bir siqim tuz qo‘shib aralashtirsa, juda ham oppoq chiqadi.

明清 Ming, Tsing davrlariga kelib, 把 “bǎ” jamlovchi nom hisob absrakt narsalarni ifodalash uchun ham ishlatila boshlagan, endi inson yoshi hisobini ifodalashda ham 把 “bǎ” ishlatila boshlandi. 明代 Ming davrida yaratilgan asarlarda “*Son + Sifat + 把 jamlovchi hisob so‘zi*” ko‘rinishidagi gaplarni uchratish mumkin. Bunday shakldagi gaplar ko‘proq tibbiyotga oid kitoblarda istifoda etilgan.

把 “bǎ” **donabay hisob so‘zi** esa ushlaydigan tutqichi, dastasi bor narsalarni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. 一把炬 [yī bǎ jù] birikmasi “*bitta mash‘al*” ma’nosida keladi. Modeli quyidagicha: “*Fe‘l + — Soni + 把 Donabay nom hisob so‘zi + Ot (炬)*” Bu shakl hozirgi kunga qadar ishlatilib kelinmoqda. 隋唐 Suy Tang davrlariga kelib, 把 “bǎ” donabay hisob so‘zi ishtirokidagi ilk gaplar paydo bo‘ldi. 宋元 Song Yuan zamoniga kelib 把 “bǎ” donabay hisob so‘zining ishlatilishi keskin sur‘atlarda kengaygan. Keyinchalik tadqiqot ob’ekti qilib olingan so‘z dastasi yo‘q narsalarga nisbatan ham ishlatila boshlangan. 把 “bǎ” donabay hisob so‘zining keng tarqalishi natijasida 宋代 Song davriga kelib u abstrakt narsalarga nisbatan istifoda etilgan: “*— soni + 把 donabay nom hisob so‘zi + Ot*”.

引孙如今在邻舍家借了这一把铁锹⁴⁰。 [Yīnsūn rújīn zài lín shè jiā jiè le zhè yī bǎ tiěqiāo.] – *Yinsun hozirda qo‘shnisidan shu bitta belkurakni olib turdi.*

Yuqoridagi fikrlarga asosan narsani boshqarish va unga ta’sir ko‘rsatishda 把 “bǎ” donabay hisob so‘zi qo‘llanadigan ob’ektlarni ikki guruhga bo‘lishi mumkin: birinchi guruhga 铁锹 [tiě qiāo] “*temir belkurak*”, 壶 [hú] “*choynak*”, 蒲扇 [pú shàn] “*qamishdan qilingan yelpig‘ich*”, 刀 [dāo] “*pichoq*”, 弓 [gōng] “*kamon*” kabi dastasi bor, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l bilan ushlanib ishlatiladigan narsalar kirsas, ikkinchi guruhni 盖头 [gài tóu] “*marosim uchun kiyiladigan bosh kiyim*”, 交椅 [jiāo yǐ] “*taxtali kreslo*”, 纤腰 [xiān yāo] “*xipcha bel*” kabi dastasi yo‘q, lekin qo‘l bilan

³⁹ 贾思勰. 齐民要术, 第九卷 //

<https://bcc.blcu.edu.cn/zh/search/5/%E8%92%BF%E5%8F%B6%E4%B8%80%E6%8A%8A>

⁴⁰ 武汉臣. 散家财天赐老生儿. 第三折 //

<https://www.zhonghuadiancang.com/shicixiqu/sanjiaocaitiancilaoshenger/114081.html>

ushlab tutsa bo‘ladigan narsalar tashkil etadi. Ammo ulardagi umumiylik bu narsalarni olib o‘tish yoki ishlatishda qo‘l bilan mahkam tutish. 把 “bǎ” donabay hisob so‘zini qo‘llashdagi shart shuki, u bilan ifodalanadigan narsani bitta ushlashda ilib olish kerak. Albatta, xitoy tilshunosligida dastasi yoki shunga o‘xshash tutqichi bor hamma narsalarga nisbatan ham 把 “bǎ” donabay hisob so‘zi ishlatilmaydi.

把 “bǎ” harakat hisob so‘zi. Harakat hisob so‘zlarining kelib chiqishi aslida fe‘llar bilan chambarchas bog‘liq. 唐 Tang sulolasi davrida 把 “bǎ” donabay hisob so‘zining qo‘l bilan ushlab narsalar o‘lchovini ifodalash semasi rivojlanadi. Buning natijasida 把 “bǎ” donabay hisob so‘zi qo‘l bilan bajariladigan muayyan harakat miqdorini ham ifodalay boshladi. 唐 Tang davrida 把 “bǎ” harakat hisob so‘zi xali ishlatilmagan edi. Uning qo‘llanishi 宋 Song davriga to‘g‘ri keladi. 元 Yuan paytida 把 “bǎ” harakat hisob so‘zining ishlatish ko‘lami asta-sekin kengaydi. Qo‘l bilan sodir etilgan harakatning miqdori, tezligini ifodalashda istifoda etilgan.

这厮又一把拿住我右腿。怎么好⁴¹? [Zhè sī yòu yī bǎ nǎzhù wǒ yòutuǐ. Zěn me hǎo?] – *Bunda u yana mening o‘ng oyog‘imni ushlab oldi. Nima qilsa bo‘ladi?* Bu gap modeli “*Ravish + 一 soni + 把 harakat hisob so‘zi + Fe‘l*” dan iborat.

Shu tariqa, 把 “bǎ” harakat hisob so‘zi bilan keladigan fe‘llar ko‘lami kengaydi, 拿, 挝, 扯, 揪, 捏 [ná, zhuā, chě, jiū, niē] kabi fe‘llar bilan birgalikda ishlatilib, 拿 [ná] “*olmoq, ushlamoq*”, 挝 [zhuā] “*urmoq, kaltaklamoq*”, 扯 [chě] “*tortmoq, tortqilamoq*”, 揪 [jiū] “*ushlab olmoq, tutmoq, tortmoq*”, 捏 [niē] “*chimchilamoq*” ma‘nolarini bildiradi. Bu so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l bilan sodir qilinadigan harakatni ifodalaydi. 一把 [yī bǎ] miqdoriy birikmasi fe‘ldan oldin kelganda hol vazifasini bajarib, harakatning amalga oshirish usulini bildiradi hamda ish-harakat qo‘l bilan ado etilishiga urg‘u beradi.

把 “bǎ” harakat hisob so‘zi sintaksisda ikki xil holatda keladi. Birinchisida, fe‘ldan oldin hol vazifasida kelib, harakat holatini yoki uni amalga oshirish usulini ifodalaydi. Bunda fe‘ldan keyin kelgan to‘ldiruvchi ham shaxsni, ham narsani ifodalashi mumkin. Modeli quyidagicha: “*一 Soni + 把 Harakat hisob so‘zi + Fe‘l*”. Ikkinchisida son + 把 “bǎ” harakat hisob so‘zi fe‘ldan so‘ng qo‘llanib, ish-harakatning takrorlanish miqdorini bildirib, gapda buyuy vazifasida keladi.

把 “bǎ” harakat hisob so‘zi boshida qo‘l kafti yordamida bajariladigan harakatni ifodalagan, keyin esa qo‘l bilan amalga oshadigan harakatni ham anglatgan, shu bilan birga, harakatni shitob bilan, tez bajarilishiga urg‘u bergan.

Bobning 3-paragrafi “**把 “bǎ” ning ko‘makchi vazifasida ishlatilishi**” deb nomlanadi. 把 “bǎ” ko‘makchisi nutqda so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi grammatik vosita hisoblanadi. Bu jarayonda ma‘lum grammatik ma‘no ham shakllanadi, ya‘ni *chamani*, *taxmin sonni* ifodalab keladi. Mazkur grammatik ma‘nolarni anglatish imkoniyati o‘zidan oldin kelgan so‘zlarga bog‘liq. Agar bu ko‘makchi bo‘lmasa

⁴¹ 西游记. 第八十五回 //

<https://bcc.blcu.edu.cn/zh/search/5/%E4%B8%80%E6%8A%8A%E6%8B%BF%E4%BD%8F>

o'zidan oldin kelgan leksema ana shu ma'nolarni aks ettira olmaydi. Faqatgina ularning birikuvidangina bu ma'no kelib chiqishi mumkin. Shu sababli 把 “bǎ” ko'makchisining leksik ma'nosi va gapdagi vazifasini o'rganishda uning distributsiyasi muhim hisoblanadi.

Xitoy tili gap tuzilishida 把 “bǎ” ko'makchisining joylashish o'rni qat'iy belgilangan bo'lib, o'zidan oldin va keyin keladigan so'zlar bilan ma'lum grammatik qoidalar asosida bog'lanib keladi. Uning sintaktik qatordagi o'rni chegaralangan bo'ladi va u bilan birga keladigan birliklar belgilab ko'rsatiladi. 把 “ba” ko'makchisi sintaktik qatorda ikki xil o'rinda keladi, birinchisi, hisob so'zidan so'ng “Hisob so'zi + 把 Ko'makchisi” modelida, ikkinchisi, sondan keyin “Son + 把 Ko'makchisi” tuzilishida ishlatiladi. Biroq ularning sintaktik vazifalari har xil.

已经去了有年把了吧，怎么一点儿消息也没有⁴²? [Yǐ jīng qù le yǒu nián bǎ le ba, zěn me yī diǎn er xiāo xī yě méi yǒu?] – *Borganiga chamasi bir yil bo'lib qoldi, nimaga birorta ham xabar yo'q?*

把 “bǎ” ko'makchisi “chog'li, taxminan, qariyib, deyarli, chamasi” kabi taxmin ma'nolarni beradi. 把 “bǎ” ko'makchisi bilan 白, 千, 万 [bái, qiān, wàn] “yuz”, “ming”, “o'n ming” butun sonlari, 亩, 里, 两, 寸, 丈, 快, 尺, 钱, 斤 [mǔ, lǐ, liǎng, cùn, zhàng, kuài, chǐ, qián, jīn] “yarim tanob”, bir chaqirim”, bir paysa”, bir enli”, “ikki quloq”, “yuan pul birligi”, “bir yarim qarich”, “bir misqol”, “bir qadoq” singari asli xitoy o'lcham birliklari⁴³, 棵, 个, 匹, 只 [kē, gè, pǐ, zhǐ] kabi “dona” ma'nosidagi maxsus nom hisob so'zlari, 杯, 瓶, 碗 [bēi, píng, wǎn] “stakan”, “shisha idish”, “kosa idish” kabi muvaqqat hisob so'zlar, 天, 年 [tiān, nián] “kun”, “yil”ni anglatuvchi mavhum hisob so'zlar, harakatning necha marta sodir bo'lganini ifodalaydigan “marta” ma'nosidagi 次, 回, 趟 [cì, huí, tàng] maxsus harakat hisob so'zlari birikib keladi.

把 “bǎ” ko'makchisi haqida vazifaviy nuqtai nazardan aytish mumkinki, u rasmiy va ilmiy uslublar uchun xos emas. Yordamchi so'zlarga nisbatan olganda so'zlashuv uslubiga xoslangan deyish mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “把 “ba” iyeroglifining leksik-semantik xususiyatlari” deb nomlanib, bob 把 “ba” ieroglifi va polisemiya hamda 把 “ba” ieroglifi va omonimiya hodisasini yoritishga bag'ishlangan.

Bobning 1-paragrafi “把 “ba” ieroglifi va polisemiya” deb nomlanadi. Ma'lumki, tilda mavjud bo'lgan so'zlar, birinchi navbatda, dastlabki ma'nosida qo'llanadi. Ehtiyoj tug'ilishi bilan so'zlarning leksik-semantik ma'nosini funksional ko'chirish usulidan ham foydalanishga o'tiladi, natijada, yuqorida ta'kidlanganidek, so'zlarning funksional-semantik ma'nosi (ma'nolari) paydo bo'ladi.

Xitoy tili 把 “ba” iyeroglifining har bir semasi uning denotativ ma'nosidan o'sib chiqqan. Uning ma'nolari o'rtasida o'zaro bog'liqlik bor, har biri tizimlashgan. 把 “ba” xitoy tilida turli so'z turkumlariga tegishli so'zdir, u nafaqat fe'l, ot, hisob

⁴² 李国文. 情敌 // <https://bcc.blcu.edu.cn/zh/search/4/%E6%9C%89%E5%B9%B4%E6%8A%8A%E4%BA%86>

⁴³ Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар (лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 72,73.

so‘zi, old ko‘makchi kabi so‘z turkumlari vazifasida keladi, shu bilan birga, har bir so‘z turkumi ichida ko‘p ma’noga ega bo‘lgan birlik hisoblanadi.

把 “bǎ” fe‘lining “qo‘l bilan ushlamoq”, “qo‘lga olmoq”, “qo‘lda ko‘tarmoq”, “bolaning orqa tomondan turib ikki oyog‘ini ushlab uni to‘smoq (bolani)”, “qo‘lga kiritmoq”, “o‘z qo‘lida ushlamoq (vaziyatni, hukmronlikni)”, “qo‘riqlamoq”, “himoya qilmoq (darvozani, hududni, binoni)”, “tutashmoq (og‘zakida ishlatiladi)”, “biriktirib qo‘ymoq (mahkamlammoq)”, “bermoq (shevada ishlatiladi)” kabi leksik ma’nolari orasida semantik yaqinlik mavjud. 把 “bǎ”ning to‘rtinchi ohangdagi “band”, “tutqich” ma’nolari ham bir kategoriyaga, ya’ni ot kategoriyasiga tegishli bo‘lib, ikkita ma’noning o‘rtasida semantik aloqa bor. Ammo 把 “bǎ”ning “qo‘lda ushlamoq” va “siqim” ma’nolari o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lsa ham, ular tilning har xil kategoriyasiga tegishli hisoblanadi.

把 “bǎ”ning morfema sifatidagi ma’nolari bilan tanishadigan bo‘lsak, 把 “bǎ” va “bà”ning keng qamrovli semalarini bilib olish mumkin. 把 “bǎ” dastlab “qo‘l bilan mahkam ushlamoq”, “qo‘lga olmoq” ma’nolariga ega bo‘lgan, bu harakatlanish domeniga ega fe‘l kategoriyasiga tegishli so‘zdir. Masalan: 把船 [bǎ chuán] – qayiqni boshqarmoq. 把 “bǎ”ning dastlabki ma’nosi qo‘l bilan bog‘liq harakatni anglatadi, shu ma’no asosida 把 “bǎ” morfemasining “bosmoq” semasi shakllangan. Masalan: 把脉 [bǎ mài] – pulsni bosmoq. Bu misolda 握 [wò] – qo‘lda ushlamoq ma’nosidan biroz farqlansa ham harakat qo‘l bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Xuddi shunday yana boshqa ma’nolar ham anglashiladi: 端 [duān] – ko‘tarib keltirmoq, 拿着 [ná zhe] – olmoq: 把酒临风 [bǎ jiǔ lín fēng] – sarobni ko‘tarib shabadaga yaqin olib kelmoq. Demak, 把 “bǎ”ning harakati yo‘naltirilgan aniq predmet qo‘l bilan tegish xarakteriga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan.

